



SO‘ZLARNING BIRIKUVCHANLIK DARAJASI VA ULARNING LINGVISTIK TALQINI

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich

Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

Alisher O‘razov

Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

Axrorov Alisher Akbarovich

Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15386867>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

valiancy, valiant, monovalent,
divalent, trivalent, actants,
arguments, fillers, partners,
complements.

ABSTRACT

There are several scientific and theoretical opinions about the composition of words and related units in linguistics. Such scientific theories are expressed by several names in different studies and are considered to be expressed by different names. In this article, the occurrence of this phenomenon as valency was considered. In world linguistics, the properties of lexemes and their possibilities are one of the most important issues of interest to linguists. In language - these features are manifested in the use of words in sentences or phrases in the speech process. The combination of words is regulated by the language system and norms and emerges as a result of the interaction of different language layers. We can see the relation of the lexical and syntactic levels in the lexical and grammatical compatibility of the words in the compounds. The content of the combination of words includes not only its place in the occurrence of a lexeme, but also features such as the uniqueness of the meaning of the word in different languages. In addition, the article describes the compositional properties of words and the place and features of their use. the need for research is highlighted.

Kirish. Tarixiy nuqtayi nazardan ham, bugungi kun talabi bilan ham fikr yuritadigan bo‘lsak, barcha munosabatlar ilmiy bilishga asoslangan. Jahon fanlarining asosi dialektik munosabatlarga tayanganligi bois qabul qilingan qarorlar strukturaning sistemasi ichida amalga oshganligiga guvoh bo‘lib kelmoqdamiz. Jumladan, “valentlik” ham til birliklarining birikuvchanlik qobiliyatini anglatuvchi atama sifatida tilshunoslikka kimyo fanidan o‘tdi va tez ommalashib ketdi. Asosiy ilmiy farazga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu atamadan foydalanishda uch nuqtayi nazar mavjud ekanligiga duch kelamiz. Masalan, “Bir guruh tilshunoslar valentlikni til birliklarining birikish imkoniyatini anglatuvchi lisoniy hodisa sifatida baholasa, boshqa bir guruh olimlar bu atamani til birligining birikmadagi xususiyati

sifatida nutqiy hodisa”, - deb hisoblaydi. Ushbu hodisani uchinchi guruh olimlar “valentlik” atamasi til birliklarining birikish imkoniyatini anglatuvchi “ham nutqiy, ham lisoniy hodisa sifatida tadqiq qilinishi lozimligini ta’kidlaydilar” [5].

Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar

Ushbu maqolada valentlik masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarimiz: Yu.D.Apersyan, S.P.Balashova, I.P.Ivanova, V.V.Burlakova, G.G.Pocheptsov, S.D.Katsnelson, M.D.Stepanova, G.Xelbig, L.Tener, N.I.Filicheva hamda ularning fikrlarini qo’llab-quvvatlagan holda o’zbek tilshunosligida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan ustozlarimiz: M.Mirtojiyev, S.Muhamedovalarning ilmiy asarlariga tayandik.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tilshunoslik tarixiga e’tibor beradigan bo’lsak, so’nggi o’n yilliklarda gap qurilishini tadqiq qilish jarayonida tilshunoslar ko’proq fe’lga, uning shakllariga gapning markazi sifatida ko’proq e’tibor qaratganligiga duch kelamiz. Demak, shu boisdan tilshunoslikda fe’l valentligi tushunchasi keng tarqaldi, lekin bu talqin bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi:[8].

- dastlab, fe’llarning hamma shakllari ham gap bo’laklariga ajratishda sintaktik birlik sifatida baholanmadi;

- ikkinchidan, har bir gapda ham valentlik nuqtayi nazaridan tekshiriladigan fe’l mavjud bo’lmasligi nazarda tutildi;

- uchinchidan, “fe’llar gap tarkibida namoyon qiladigan valentlik xususiyatidan tashqari lug’atlarda beriladigan leksik birikuvchanlikka ham ega”.

Izohli lug’atlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, VALENTLIK [*lot. valens, valentis* - kuchli; mustahkam; sog’lom] **1 kim.** Biror element atomining boshqa elementning muayyan sondagi atomini biriktirib yoki almashtirib kimyoviy bog’ hosil qila olish qobiliyati, xossasi.

Til birliklarining (mas, so’zning) gapda boshqa so’zlar bilan o’zaro birika olish qobiliyati, imkoniyati. *Valentlash nazariyasi, lug’aviy birliklarning semantik valentlari bo’yicha bir qancha ilmiy maqolalar, maxsus monografiya bosilib chiqdi* [13]. Darhaqiqat, valentlik – (*lot.valentia – kuch*) – so’zlarning boshqa so’zlar bilan birika olish qobiliyati. Ushbu atama struktur yo’nalish vakili fransuz tilshunosi L.Tenyer ishlarida ilk bor qo’llandi [12]. Olim valentlik atamasini amaliyotga kiritib, bu nazariyani ishlab chiqishda muhim o’rin tutganligi shubhasizdir. Olim fe’llarni bir nechta birikuvlarni boshqara olish xususiyatiga ko’ra bir va ko’p valentli turlarga bo’lishni taklif kiritadi. Qonuniyatga alohida e’tibor bergan holda fe’l mazmunan bir nechta so’zni bir vaqtda biriktira olganligi sababli valentlik tushunchasini faqat fe’l bilan bog’lashga harakat qiladi. Olimning tadqiqlarida harakatga bog’liq elementlarni anglatuvchi “aktant” atamasini kiritganligi ilmiy izlanishlarda o’z aksini topgan. Ilmiy izlanishlari natijasida aktantlarni biriktira olish qobiliyatiga ko’ra fe’llarda aivalent, monovalent, divalent, trivalent kabi kichik guruhlarga bo’lib o’rganadi [2].

Olimning ilmiy tadqiqlarida valentliklar ichida aivalent fe’llar valentlikka ega bo’lmasligini alohida ta’kidlab o’tadi. Bunday fe’llar hech qanday aktantlarning ishtirokisiz sodir bo’lgan harakatlarni anglatadi. Masalan, *suvi isitildi* fe’li anglatadigan harakatning bajaruvchisi mavjud emas va bunday fe’llar aivalent fe’llar sanaladi [12].

- bir valentli (monovalent) fe’llarga, aksariyat hollarda, holat fe’llarini kiritish mumkin. Masalan, *bola yig’laydi* gapidagi fe’l boshqa bir shaxsga o’tishi mumkin bo’lmaganligi sababli bir valentli sanaladi[12].

- divalent (ikki valentli) fe'llar sifatida, aksariyat hollarda, o'timli fe'llar ajratiladi. *Baxtiyor kitobni o'qib chiqdi* gapidagi fe'lda harakat natijasida shaxs biror natijaga erishganligini bildiradi. Yuqoridagi fe'l valentliklar, olimning fikriga ko'ra, divalent fe'l hisoblanadi [12].

- trivalent fe'llar ishtirok etgan gaplarga *Baxtiyor menga kitobni uzatdi* tipidagi gaplar misol bo'ladi. Bunda aktantlar *Baxtiyor, men va kitob* so'zlaridir.

Darhaqiqat, olimning fe'l valentligi haqidagi nazariyasi Y.Apresyan, G.Xelbig hamda M.D.Stepanova kabi bir qator olimlar tomonidan boyitildi va keyinchalik to'rt, besh va hatto besh valentli fe'llar ham mavjudligi haqidagi fikrlar ilgari surildi. Masalan, *покупать* fe'li rus tilida oltita aktantni biriktira oladi (от кого?, что?, кто?, когда?, за сколько?) [4,11].

Yuqoridagi ilmiy asoslarga ko'ra, "valentlik" atamasiga nisbatan L.Tenyer konsepsiyasining o'ziga xosligi gapdagi fe'lning alohida maqomi talqin qilinganligidadir. Uning nazariyasiga ko'ra, gapda fe'l asosiy o'rinda turadi, qolgan barcha gap bo'laklari, hatto ega ham unga tobe hisoblanishi nazarda tutilgan. Bularning hammasi, olim nazdida, fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga valentlik nazariyasida yetakchilik maqomini berish uchun asos edi. Fe'lning bunday birikuvchanlik xususiyatida olim tadqiqning mazmuniy bosqichidan kelib chiqadi va u har qanday harakat gap qurilishida yo ikkinchi darajali bo'lak, yo ega maqomida bo'ladigan bir nechta aktantlarni talab qiladi, deb hisoblaydi hamda shunday yondashadi.

Fransuz tilshunosi L.Tenyerning fikriga ko'ra, barcha sirkostantlar (fr.*circonstat*, lot. *circum* – yonida va *stans* - turuvchi) fe'l mazmuniga bog'liq bo'lmaganligi uchun uning birikuvchilari (valentlik) qatoriga kirmaydi [6]. L.Tenyerning obrazli ta'biricha, "gap (faza) kichik dramaga o'xshaydi. Har qanday drama ma'lum jarayonni, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarni va mazkur jarayon yuz beradigan vaziyatni (joy va holatlarni) o'z ichiga olgani kabi gap ham muayyan jarayonni, bu jarayonda ishtirok etuvchilarni va mazkur jarayon yuz beradigan vaziyatni o'z ichiga oladi", - degan so'zlari o'zbek tilshunos olimlari M.Mirtojiyev, S.Muhamedovalarning ilmiy asarlarini asosiy negizini tashkil etadi [2].

Tilshunoslik qoidalariga muvofiq gapdagi jarayon fe'l vositasida, ishtirok etuvchilar mazkur fe'lga tobe bo'lgan otlar yoki otlashgan so'zlar va birikmalar yordamida, vaziyat esa ravishlar yoki ravish vazifasidagi so'z va birikmalar vositasida ifodalanadi. Shunga alohida e'tibor berish lozimki, gap bo'laklarini shu gap tarkibidagi fe'l yaxlitlaydi, jamlaydi, birlashtiradi. Gapda ishtirok etuvchilar va holatlarni ifodalovchi so'zlar, an'anaviy grammatika termini bilan aytganda, mazkur gap tarkibidagi fe'l turkumiga oid so'z tomonidan boshqariladi. Demak, "bu tipdagi gaplarning mantiqiy asosi, yaxlitlashtiruvchi markazi shu gap tarkibidagi fe'ldan tashkil topadi" [14]. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning tahliliy natijalari fe'lni gapning tizgini sifatida ifodalanishini ta'minlaydi. Aslida valentlik nazariyasining tilshunoslikda qo'llanilishi L.Tenyer va S.Kasnelson asarlari bilan bog'liq bo'lib, dastlab bog'lanishni ifodalash uchun bu atamani olib kirgan fransuz tilshunosi L.Tenyer uni faqat fe'lga nisbat berganligini ko'rib o'tdik. "Valentlik fe'lning gapda subyekt, obyektlarni biriktirish imkoniyatidir", - deb ta'kidlaydi. Fe'l-kesimning zaruriy, to'ldiriladigan semantik bo'laklari shu subyekt va obyektlardan iboratligini asoslab beradi. U gapning egasi, vositali va vositasiz to'ldiruvchilarini nazarda tutib, valentlik atamasini ximiyadan o'zlashtiradi va struktural sintaksis asoslari nomli kitobida bu atamaning tildagi xususiyatlarini asoslab beradi. Har bir so'z ikkinchi bir so'z bilan bog'lanuvchi aniq bir xususiyatga ega va bu strukturalardan, gaplardan iborat. Biroq bu aloqa hech narsa bilan ifodalanmaydi. Misol uchun, *Baxtiyor ishlayapti* ikkita alohida-alohida hodisa, bir tomondan *Baxtiyor* ismli shaxs, ikkinchi tomondan kimdir ishlayapti. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin, hatto bir necha so'zlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu ikki(uch) narsa mening ongimda bir-biriga qo'shib, ishlash harakati *Baxtiyor* tomonidan bajarilayotganini ma'lum qiladi. Bundan bu gap ikki elementdan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Vaholanki, *Baxtiyor ishlayapti*

gapi uch elementdan tuzilgan: 1.Baxtiyor. 2.Ishlayapti. 3.Aloqa. Gapda ikki narsa bor deb qarash mumkin, biroq bu tashqi tomondan yoki morfologik nuqtayi nazardan, lekin gapning shakllanishida sintaktik aloqa muhim hisoblanadi [3]. Valentlik terminini o'zining – grammatik kategoriyalar (1948) asarida qo'llagan S.D.Kasnelson ham bu tushunchani so'zning gapda ma'lum tarzda reallashishi va boshqa so'z bilan ma'lum aloqaga kirishishi ma'nosida qo'llaydi. Valentlik – ma'lum so'zning boshqa so'zni o'ziga birlashtirish xususiyatidir, deb ataydi [7,8,10,]. Xuddi shu kabi fikrni Abdurauf Fitrat o'zining “Sarf” asarida: “O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini (otni) o'ylasangiz, bizda u hayvon ustiga yerlashmak uchun bo'lg'an tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'no o'ylag'an bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab, o'zingizni otqa minganingizni o'ylag'anda, miyangizda bir o'y tuqqondir. Shu o'yni bir kishiga bildirmaqchi bo'lg'ach, men ot mindim deb qo'yasizkim, bu aytqaningiz bir gapdir. Ko'rinadirkim, yuqoridag'i o'yda uch ma'no bo'lg'ani kabi u o'yni bildirguchi gapda ham uch so'z bor: men, ot, mindim. Demak, so'z ma'no bildirgan tovushlar to'dasidir”, – deb ta'kidlab ketadi [1]. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelinadiki, tovush signallari orqali, boshqacha aytganda, belgilar orqali inson obyektiv olamga borishini va aksincha, obyektiv olamdan semantik predmetlar orqali belgilashtirish jarayoni, ya'ni sintaktik aloqa mavjud ekanligi ko'zda tutiladi. Demak, sintaktik aloqa esa valentlik tufayli yuzaga chiqishidir. Bugungi kunda tilshunoslikda valentlikni sintaktik aloqani ta'minlovchi muhim vosita sifatida alohida ta'kidlash an'anaga aylanib qoldi va bu atama ko'plab tilshunoslarning ishlarida ham o'z aksini topdi. Dastlab, valentlik atamasi faqat fe'llarning birikuvchanlik imkoniyatlariga nisbatan qo'llanildi. Keyinchalik ushbu terminning vazifasi kengayib, valentlik xususiyatlari keng doiradagi morfologik birliklarga xos ekanligi tilshunoslar tomonidan e'tirof etila boshlandi. Fe'lning rolini izohlash spetsifikasi L.Tenyer konsepsiyasining o'ziga xosligini belgilaydi. Olim “Sintaksisni qanday qurish kerak nomli maqolasida” (1939) sintaktik nazariyalar sof sintaktik belgilarga tayanishi lozimligini ta'kidlagan holda, ikki asosiy qismni:

- 1) grammatik kategoriyalarni, tartibni hamda ularning tildagi uyushishi tamoyillarini o'rganuvchi kategorial yoki statik sintaksis;
- 2) tirik fraza strukturasi, uning aloqalarining real mexanizmlarini tadqiq etuvchi funksional yoki dinamik sintaksisni ajratadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga binoan L.Teyerning yangicha talqinida fraza ko'p qavatli iyerarxik qurilma sifatida namoyon bo'lib, markazga uning barcha organizmlarini boshqarib turuvchi fe'l qo'yildi. Keyingi periferiya qismida esa bir-biriga va oxir-oqibat fe'lga tobelanuvchi grammatik elementlar joylashtirilishi tadqiqalarining asosidan biri hisoblanadi. Ko'rinadiki, L.Teyerning fe'lning sintaktik xususiyatlariga, uning birikuvchanligiga qiziqishi keyinchalik sintaktik valentlik ta'limotining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi va valentlik deganda, birinchi navbatda, fe'lning sintaktik valentligi tushunildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib valentlik tushunchasini L.Tenyer fe'lning sintaktik tasnifi uchun qo'llaydi va nol, bir, ikki hamda uch valentlikka ega bo'lgan fe'llarni ajratadi:

- nol valentlikka ega bo'lgan fe'llar ishtirokchilarga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Bular o'z-o'zicha, bironing ishtirokisiz sodir bo'layotgan jarayonni bildiradi. Masalan, Suv sharqiraydi;

- bir ishtirokchiga ega bo'lgan bir valentli fe'llar bir shaxs yoki bir predmet ishtirok etayotgan jaryonni bildiradi. Masalan, Baxtiyor bordi;

Ikki ishtirokchi qatnashgan jarayonni ifodalovchi fe'llar ikki valentli fe'llardir. Masalan, Baxtiyor olma oldi;

-uch valentli fe'llar uch ishtirokchi qatnashayotgan jarayonni ifodalaydi. Bunday fe'llarda birinchi va ikkinchi ishtirokchilar shaxsni, uchinchi ishtirokchi esa predmetni ifodalaydi: Baxtiyor Shuhratga kiyim berdi.

Demak, L.Tenyer o'z ishlarida gapni struktur tahlil qilar ekan, uning asosida fe'l yotishini ta'kidlaydi va buning natijasida fe'l valentligi nazariyasi (verbosentrik nazariya) vujudga keldi. Bunga ko'ra gap tuzilishini predikat (ko'p hollarda fe'l bilan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha qismlari fe'l predikat munosabatiga ko'ra unga bog'liq qismlarga (aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnyorlar, komplementlar va h.k.) va erkin qismlarga (erkin kengaytiruvchilar, hollar, adyunktlarga) bo'linadi.

Xulosa

Ko'rinadiki, hollar fe'llarga bog'liq qismlar qatoriga, ya'ni uning valent tarkibiga kiritilmaydi. Fe'l valentlik xususiyatlarining bunday talqini L.Tenyerning tahlilda mazmuniy bosqichga asoslanish zarurligi va har qanday harakat muayyan miqdordagi ishtirokchilarni (aktantlarni) talab etishi, gap sathida bular ega va to'ldiruvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlari bilan bog'liq. Uning fikricha, barcha holli elementlar fe'l ma'nosi bilan shartlanmagan, shuning uchun uning valent tarkibiga kirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
2. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
3. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O 'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(18), 144-146.
4. Абдуҳақимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР “ЎЛИК СЎЗЛАР” ДИР. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 74-78.
5. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
6. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
7. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. *МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
8. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
9. Ahrorov, A. A. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49-53.
10. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
11. Boxodirovich, E. N., & Murtazaevich, M. S. (2022). Phonological approaches to the study of the phoneme.
12. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.

13. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 26-29.
14. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 376-385.
15. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
16. Murtazayevich, M. S., Akbarovich, A. A., & Muratkulov, A. (2025). OTLARNING XUSUSIY BIRIKUVCHILARINING LINGVISTIK TAHLILI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 212-215.
17. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).
18. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
19. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.
20. Yerjanova, S. B., & To'ychiyeva, Z. H. L. (2024). MAHMUD KOSHG 'ARIYNING "DEVONU LUG 'OTIT TURK" ASARIDA SO 'ZLARNI KO 'CHMA MA'NODA QO 'LLASH. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 7-12.

INNOVATIVE
ACADEMY